

VAQF SHAKLLARI VA UNING KELIB CHIQUISH TARIXI

Khikmatillayeva Shoirakhan

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Tarix (islom tarixi va manbashunosligi) yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Toxir Xotamov "Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA" kafedrasida dotsent v.b., (PhD)

Annotatsiya: *Vaqf fondining tarixi va uning bugungi kundagi ahamiyati. O'zbekistonda Vaqf fondining olib borayotgan ezgu ishlari. Saxovatli oyda savob ishlar qilish va sadaqa berish tartiblari.*

Kalit so'zlar: *Zakot, vaqf, ushr, fitr, fidya, ramazon, sadaqa, savob.*

Ramazoni sharif saxovat, mehr-muruvvat oyi. Ramazonda biror-bir o'ksik qalb qolishi kerakmas. Shu sababdan mo'min-musulmonlarimiz ham beradigan zakotlarini aynan mana shu oyda berishadi. Bu oychalik mo'minlar tomonidan saxovat qilinadigan oy yo'q. Zakot, fidya, fitr sadaqalari beriladi, qo'shimcha xayr-saxovatlar qilinadi. Demak, Ramazon oyi to'la ma'noda saxovat oyi. Bu oyda qilingan saxovatga boshqa oyda qilingan saxovatga qaraganda yetmish karra ajr bor. Bitta narsani yoddan chiqarmaslik zarur – saxovatni qildik, ulkan ajrni qo'lga kiritdik, kimningdir qozoni qaynaydi, kimningdir ishi bitadi, kimningdir ko'ngli shod bo'ladi, lekin undanda katta foydani o'zimiz ko'ramiz.

Islomda zakot, xiroj, ushr, fitr sadaqa va xayr-exsonlar "sadaqot" (sadaqalar) degan so'z bilan ifodalanadi (Bakara surasi, 271-, 276-; Tavba surasi, 58-, 60-, 79-va 104-oyatlar).

Alloh taolo bunday marhamat qiladi: "Sadaqalaringizni agar oshkora bersangiz, juda yaxshi. Bordiyu kambag'allarga pinhona bersangiz – o'zingiz uchun yanada yaxshiroqdir va (U) gunohlaringizdan o'tar. Alloh qilayotgan (barcha) ishlaringizdan xabardordir" (Bakara surasi, 271-oyat)

Ushbu oyati karimada sadaqani oshkora qilish ham, maxfiy qilish ham maqtalmoqda. Bu haqdagi boshqa oyat va shar'iy dalillarni o'rganib chiqqan ulamolarimiz xulosa qilib aytadilar: "Sadaqa farz bo'lsa, uni oshkora qilish yaxshi, chunki bu holda Allohning amriga toat oshkora ko'rinadi va haqdor bo'lmagan kishilarga ham tushib qolishining oldi olinadi. Agar sadaqa ixtiyoriy bo'lsa, uni maxfiy qilgan yaxshi: riyodan va manmanlikdan xoli bo'ladi. Sadaqaning eng haqdori kambag'al-faqir kishilardir. Islomda sadaqaning joriy qilinishi ham o'sha toifaning himoyasi va yordami uchun bo'lgan. Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qiladi: "Kim bir solih amal qilsa o'zi uchun". Payg'ambarimiz alayhissalomning xonadonlarida bir qo'y so'yildi. Oysha onamiz shu qo'yni taqsim qildilar. Rasuli akram alayhissalom kelgach, onamizdan so'radilar: "Qo'ydan ro'zg'orga nima qoldi?". Onamiz aytdilarki: "Bitta qo'li qoldi". Ya'ni, ro'zg'orga qo'yning bir qo'lini olib qolib, qolganini tarqatib yuborgan ekanlar. Shunda Payg'ambarimiz alayhissalom: "Qo'lidan boshqa hammasi o'zimizniki bo'libdi", dedilar. Qarang, ro'zg'orga qolgani demayaptilar, tarqatib yuborganimiz bizniki deyaptilar. Kim bo'lishidan qat'i nazar nima ko'mak bersak yaxshi, hech bo'lmasa bu oyda tabassum, shirin so'zimizni qilaylik, chunki bu ham ehson.

Rasuli akram (s.a.v) ilk payg'ambar bo'lgan kunlari Makka tashqarisidan keksa bir ayol shaharga kirib bozorlik qildi. Ishini bitirib uyga qarab ketayotganida qo'lidagi yuk og'irlik qildi. Yo'lovchilardan yordam so'radi, biroq hech kim yordam bermadi. Bir mahal o'rta yosh bir yigit kelib, ayolning ikki qo'lidagi yukni ko'tarib olib, toki uyiga qadar olib borib berdi. Haligi ayol ostonasiga borgach aytdiki: "O'g'lim, men sizning bu yaxshiligingizni qanday qaytarsam? Menda ortiqcha pul yo'q. Ammo sizga keksalik bir nasihatim bor. Shu kunlarda Makkada Muhammad ismli odam paydo bo'libdi. Yangi dinga da'vat etayotgan ekan. Agarda shu odamga yo'liqsangiz, aldanib qolmang. U odam firibgar, sehrgar, yolg'onchi, kazzob. Yaxshiligingiz evaziga mana shu nasihatimni oling. Yordam bergan va shu paytgacha jim turgan yigit to'satdan shunday dedi: "Siz aytayotgan o'sha Muhammad – menman". Ayol seskanib

ketib, rasulullohga qaradi, qo‘li bilan qulog‘iga ishora qildi: “Agar quloqlarim eshitgan Muhammad siz bo‘lsangiz, men sizga iymon keltiraman. Ayting, ayting men musulmon bo‘lay”. Rasuli akram alayhissalom kalimani aytdilar. Ayol qaytardi va musulmon bo‘ldi.

Bir ayolni musulmon bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi? Beg‘araz yaxshilik. Vaholanki Payg‘ambarimiz alayhissalom u kishini musulmon bo‘lishga da'vat etmagan edilar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Sadaqa qilishga shoshiling. Chunki balolar (ofatlar) sadaqa tomonga qadam qo‘ya olmaydi. Yana sadaka qilishga shoshiling, chunki sadaqa baloni qaytaradi va baloning (yerga) tushishini to‘xtatadi.

Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining baxri mavjvari, balki ul mavj baxrining samin gavxari Saxovatsiz kishi — yog‘insiz abri baxor. Mevasiz yig‘och xamonu o‘tun xamon va yog‘insiz bulut xamonu tutun xamon. Saxosiz kishi birla gavxarsiz sadafning bir xukmi bor. Dursiz sadaf bila o‘lub qurug‘on ne e‘tibor .Saxiy bulutdur — ishi xirmon, balki maxzan bermak. Ximmat axlig‘adur saxovat ixtisosi va bu ikki sharif sifat valoyat xosi. Saxovat odamig‘a badandur va ximmat anga rux va ximmat axlidan olamda yuz ming futux. Ximmatsiz kishi er sonida emas, ruxsiz badanni kishi tirik demas. Soxibi xikmat muflislik bila past bulmas, ximmatsiz ganj topsa, biyiklarga xamdast bulmas. (Alisher NAVOIYning sh. «Maxbub ul-qulub» asaridan)

Musulmonlarning xayriya ishlarining barchasiga dinimizdagi vaqflar haqidagi ko‘rsatmalar asos bo‘lgan. Mazkur xayriya ishlarini qilishda barcha musulmonlarga Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning o‘zlari bosh o‘rnak bo‘lganlar. U zot turli kishilar tark qilgan yettita bog‘ni miskin faqirlar va hojatmandlar foydasiga vaqf qilganlar. Keyin u zotga Hazrati Umar, Hazrati Abu Bakr, Hazrati Usmon, Hazrati Ali, Zubayr ibn Avvom, Muoz ibn Jabal kabi sahobalar ergashib katta miqdordagi vaqflarni qilganlar. Asta-sekin bu xayrli ish kengayib borgan va deyarli imkoni bor barcha sahobalar vaqflar qilganlar. Vaqf

– Islom shariatiga Qur'on, Sunnat va ijmo' bilan sobit bo'lib kirgan mustahab amal.

Vaqf (arab.) — shariatda davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk. Vaqfnoma orqali rasmiylashtiriladi. Yer-suv, uy-joy, maktab, madrasa, masjid, shifoxona va boshqalar vaqf mulki bo'lishi mumkin. O'z mulkini vaqfga topshirgan shaxs mazkur mulkka nisbatan egalik huquqini yo'qotadi. Lekin uning o'zi yoki oila a'zolari yoxud uchinchi bir shaxs vaqf mulkidan vaqfnomada qayd etilgan maqsadlarda foydalanilayotganligini aniqlash uchun vaqf mulkini boshqarish huquqini saqlab qolishi mumkin. O'z mulkini vaqf mulki sifatida topshirgan shaxsning farzandlari yoki boshqa avlodlari mazkur vaqf mulkidan keladigan daromadlardan nafaqa olib turishi mumkin. Vaqf mulkini shariat qonuni bo'yicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi. Bu tartib Sharqning ba'zi mamlakatlarida hozir ham amalda.

Vaqf so'zi lug'atda «tutib turish», «to'xtatish» ma'nolarida keladi. Vaqf - narsani Alloh mulki hisobida saqlashdir. Ya'ni, vaqf qilingan narsa vaqf qiluvchining mulkidan chiqadi va Alloh mulkiga aylanadi. Vaqf qilingan narsadan keladigan foyda vaqf qiluvchi tomonidan belgilangan manzilga (masalan, talabalar, musofirlar, kambag'allarga) sarf qilinadi va savobi vaqf qiluvchiga abadiy bo'ladi, hatto o'limidan keyin ham yetib turadi. Vaqf qilingan narsa sotilmaydi, hadya qilinmaydi, meros bo'lmaydi.

Vaqf – sadaqa emas, sadaqa bir narsani infoq qilish bilan sodir bo'ladi. Vaqf – o'sha narsani aynini ushlab turgan holda, foydasini eng go'zal suratda sarflab borishdir. Buning savobi vaqf qiluvchining o'limidan keyin ham unga yetib turadi.

Vaqf — musulmon mamlakatlarida davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulkdir. U o'z ichiga ko'chmas mulk (bino va inshootlar, ekin maydonlari) va ko'char mulkni (asbob-uskunalar, stanoklar, qurol-yarog'lar) oladi. Ulardan foydalanganda, mulkning asli yo'qolmaydi, ammo foydasi sarflanadi.

Turkistonda hozirg'acha ma'lum bir yo'lga qo'yilmagan chatoq ishlardan biri vaqf ishlaridir. Inqilobdan beri vaqf ishlari uchun yuzlarcha komissiyalar tuzildi. Turluk loyihalar yasaldi. Lekin kutilgan bir natija chiqmadi. Keyingi vaqtlarda vaqflarni xalq qo'lga berish siyosati maydonga chiqdi. Buning uchun TurkSIK tomonidan bir loyiha tuzilib, qozi va mudarris qurultoyidan ham o'tkazildi. Samarqand, Farg'ona oblastlarida vaqf sho'rolari tuzilib, ishga ham kirishdi. Sirdaryo oblastida ham mundan bir oy muqaddam turluk tashkilotlar tarafidan vaqf sho'rosi uchun vakillar saylanib tegishlik o'rtoqlarga topshirildi. Eski shahar ijroqo'mida saylov qarornomalari oylab yotgandan so'ngra tasdiq qilinub, muzofot ijroqo'miga topshirganligi eshitiladir. Har holda u yerda ham yota-yota zerikgach, undan ham tasdiq qilinub, Sirdaryomizda ham vaqf sho'rosi ishga kirishsa kerak. Vaqf sho'rolari ishga kirishgan bilangina kutilgan natija chiqarmi, yo'qmi? Unisini kelgusi ko'rsatur. Yolg'uz hozirgacha vaqf ishlarini bu tariqa chatoq holda qoldirib kelgan ko'p sabablarning eng kattasi vaqflarni sarf va boshqarish to'g'risidagi fikrlarning turlikligidir. Bir-biriga tamom teskari bo'lgan bu fikrlar birlashmagan taqdirda vaqf ishlari tag'in chuvolur. Har kim har tomonga qarab tortar, urishilur, so'kishilur, natijada takror vaqflarning tog' kabi madrasalar bino qilishdan va ulardagi o'quvchi va o'qituvchilarning ta'minoti uchun qoldirgan millionlarcha vaqflaridan kutgan maqsad-muqaddaslari shu choqg'acha bo'lib kelganidek poymol bo'lur. Bunchalik vaqflar, bunchalik madrasalardan xalqning maorif va madaniyati nomiga foydalanish mumkin bo'lmas. Boshqa mutaraqqiy islom mamlakatlarida ko'pdan buni tushunib, bu to'g'ridagi ixtilofi afkorni oradan ko'targanlar, vaqf ishlarini ma'lum bir yo'lg'a qo'yib, maorif byudjetining buyuk bir qismini vaqfdan keragicha istifoda qilmoq, vaqflarning ruhlarini shodlantirmoq bo'lsak, avvalo bu to'g'ridagi ixtiloflarni bir yog'liq qilib, fikrlarni birlashtirishimiz kerakdir. Vaqf ishlari to'g'risida inqilobdan beri boshlucha to'rt fikr rol o'ynab keldi:

1-hasadchilar, 2-tafritchilar, 3-ifrotchilar, 4-mo'tadillar fikri.

(*«Haqiqat» jurnali, 1922 yil, 2-son*) [3]

O'zbekistonda «Vaqf» xayriya jamoat fondi

2018 yil 16 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi. Ushbu farmonda O‘zbekiston musulmonlari idorasi huzuridagi «Vaqf» xayriya jamoat fondi tashkil etilganligi to‘g‘risidagi ma'lumot berildi.[4]

«Vaqf» xayriya jamoat fondining asosiy vazifalari sifatida masjidlar va diniy ta'lim muassasalarining binolarini qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, obodonlashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, me'moriy ahamiyatga ega ziyoratgohlarni saqlash, ta'mirlash, obodonlashtirish, ularning infratuzilmasini yanada rivojlantirish, diniy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilari, mutaxassisleri va o‘quvchi-talabalarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, masjidlar va ziyoratgohlar xodimlarini, xususan imom-xatiblar, imom noiblari, mutavallilar, muazzinlarni moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yetuk olim va ulamolari qalamiga mansub diniy-ma'rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko‘maklashish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarni moddiy va ma'naviy qo‘llab-quvvatlash keltirib o‘tilgan.

«Vaqf» xayriya jamoat fondiga fuqarolardan zakot, fitr va boshqa xayriya mablag‘lari Fondning alohida hisob raqamida to‘planadi.

Fondning mablag‘lari 3 qismga bo‘linadi:

1. Xayriya bo‘limi
2. Vaqf bo‘limi
3. Zakot, ushr, fitr va fidya bo‘limi.

Hozirgi kunda 3ta bo‘limning ham banklarda alohida hisob raqamlari mavjud. Masalan, bir kishi zakot uchun fondga mablag‘ o‘tkazsa, ushbu mablag‘ zakot bo‘limiga tushadi va shariatda aytilgan o‘rinlarga sarf qilinadi. Umumiy qilib aytganda fond faqatgina vaqf mulkidan iborat emas.[4]

Hozirgi vaqtda fond xayriya mablag‘larni odamlar qiyinchiliksiz o‘tkazishlari uchun elektron to‘lov tizimlariga ulangan. Jumladan, Click, Payme

tizimlari orqali «Vaqf» fondiga pul o‘tkazish mumkin. Bundan tashqari O‘zbekistondagi barcha bank infokioskalar orqali fondga xayriya qilish imkoniyati bor. Ulardan fondning istalgan bo‘limiga naqd yoki plastik karta orqali pul o‘tkazish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/uz/48133232> Ramazonda qilingan saxovat boshqa oylarga nisbatan 70 marta ko‘p savob keltiradi
2. [O‘zbekistonda vaqf mulklari: tarix va hozirgi zamon \(Samarqand misolida\) \(cyberleninka.ru\)](#)
3. https://wikisource.org/wiki/Turkistonda_vaqf_ishlari
4. [Vaqf ma'nosi va turlari \(kun.uz\)](#)
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Vaqf>